

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

H.HAMIDOV

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI TARIXI FANIDAN MA'RUZA MATNI

TOSHKENT -2011

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI TARIXI

ADABIYOTSHUNOSLIK badiiy adabiyotni, uning mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy funktsiyasi, ijodiy jarayon qonuni-yatlarini o'rganadigan fan. U bir-biri b-n uzviy bog'liq bo'lgan Z bo'limni: adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqidni o'z ichiga oladi. ADABIYOTShUNOSLIKning ildizi maqol, qo'shiq, doston singari xalq orzaki ijodi namunalari yuzasidan bildirilgan ilk mulohazalarga borib boglanadi. Mas, Mahmud Koshfariyning «Devonu lu'otit turk» asaridan joy olgan matallarga, badiiy so'z unsurlariga ilmiy-tekstologik munosabat, o'sha davr adabiy janrlari haqidagi fikrlar adabiyotshunoslikning olis tarixidagi ko'rinishidir. ADABIYOTShUNOSLIK ilmiga oid teran qarashlar Forobiining «She'r san'ati...» kitobida mufassal bayon qilingan (10- Adabiyotshunoslik). Unda she'riy asarning yaralish tabiati, ijodkor shaxsi va mahorat muammolari, so'z qadri xususida fikr yuritiladi. 11-Adabiyotshunoslikda yashagan adabiyotshunos olim Abdulqodir Jurjoniyning «Asror ul-balofa fi- ilmi bayon» («Bayon ilmida balofat sirlari») asarida so'z san'atidagi shakl va mazmun masalasiga alohida urfu berilsa, 13-Adabiyotshunoslikda yashagan qomusiy olim Kays Roziyning «Kitob ul-mo''jam fi-maoyiri ash'or il-ajam» («Ajam she'riyati me'yorlari qomusi») kitobida nazariy masalalar — aruz tizimi, poetik san'atlar, she'riy janrlar tahlil etilgan. Kaykovusning «Qobusnoma»sidan (11-Adabiyotshunoslik) esa, she'r jamiyatning turli qatlamlari estetik talablaridan kelib chiqib yaratilishi, badiiy asar, albatta, ta'sirchan bo'lishi lozimligi haqidagi mulohazalar o'rin olgan.

Adabiyot tarixi yo'nalishida muayyan xalq (xalqlar, mintaqa, jahon) badiiy adabiyotining tarixiy taraqqiyoti hamda yozuvchi-shoirlarning hayot va ijod yo'li chuqur o'rganiladi. Jumladan, o'zbek milliy adabiyoti bosib o'tgan uzoq tarixiy yo'l, zamon, siyosat va adabiy jarayon munosabatlarining o'ziga xosliklari, u yoxud bu ijodkorning ushbu jarayonga ko'rsatgan ta'siri yuzasidan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. ADABIYOTShUNOSLIK tarixida 12-Adabiyotshunoslikda yashagan shoir va adabiyotshunos Nizomiy Aruziy ibn Umar Samarqandiy, 15-Adabiyotshunoslikda adabiyotshunos olim Atoulloh u1202 .usayniy, Zamaxshariy,

Xondamir, Vosifiy asarlari muhim ahamiyatga

egadir. O'zbek adabiyotshunosliging takomili Navoiy (q. Alisher Navoiy) ijodiy faoliyati b-n chambarchas bo'liq. O'zbek tilidagi tazkira janriga asos solgan «Majolis un-nafois» («Go'zal majlislar») ilk o'zbek adabiy

qomusi hisoblanadi. Ushbu asarda Navoiy deyarli yarim asr mobaynida o'ziga zamondosh bo'lgan 469 shoir, olim, bastakor, hattot, she'riyat homiylari haqida ma'lumot beradi, badiiy mahorat, san'atkorning ijtimoiy burchi, poetik janr masalalarini yoritadi. Navoiyning «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», Jomiyga bafishlangan «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat») singari asarlari adabiy portretning dastlabki namunalari. Uning «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») asarlarida aruzning nazariy, amaliy masalalari tadqiq etilgan. Husayn Boyqaro esa, o'z navbatida, Navoiyning betakror mahorati, u yaratgan adabiy muhit, davr adabiy jarayoni haqida ma'lumot beruvchi risola yaratgan. Zahiriddin Muhammad Bobur «Muxtasar» kitobi b-n Navoiydan so'ng aruz ilmi tadqiqini yangi bosqichga ko'tardi. Bu kitobda aruzning 20 dan ortiq bahri, 530 dan ortiq vazni haqida ma'lumot beriladi. O'zbek adabiyotshunosligining keyingi davrlardagi yo'nalishini, asosan, tazkiralari belgilaydi. Jumladan, 19-Adabiyotshunoslik boshlarida Fazliy rahbarligida she'riy shaklda yaratilgan «Majmuai shoiron» («Shoirlar guruhi») tazkirasi Qo'qon xoni saroyiga to'plangan ijodkorlar haqida nisbatan to'liq ma'lumot beradi. Ahmad Tabibiyning she'riy shakldagi «Majmuat ash-shuaroi Feruzshohiy» («Shoh Feruz shoirlari guruhi») hamda «Muhammasoti majmuat ush-shuaroi Feruzshohiy» («Shoh Feruz

shoirlari guruhining muxammaslari») tazkiralarida ijodkorlarning asarlari janrlarga bo'lib o'rganiladi (20-asr boshi). Birinchisida razallar, ikkinchisida muxammas va musaddaslar tahlil etiladi. Matbuot va noshirlik ishlarining rivoji 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida o'zbek tanqidchiligi, adabiyotshunosligi uchun yangi u1080 imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Ayniqsa, adabiy tanqidda uyfonish ro'y berdi — harakatdagi adabiy jarayonni, yozuvchi ijodini, adabiy muammolarni davrning ma'naviy va estetik talablari, ommaning ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib

o'rganish, adabiyot taraqqiyotidagi, ijodkor mahoratidagi yangiliklarni kashf etish, kamchiliklarni baholi qudrat ko'rsatish boshlandi. Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhamedov, Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Vadud Mahmudlarning maqolalarida so'z san'ati oldida turgan muhim ijtimoiy vazifalarga urfu berildi, adabiyot rivojini millat, Vatan, istiqpol, mustaqil yurt uchun kurashuvchi yangi insonni tarbiyalash masalalari b-n bo'lashga harakat qilindi. Cho'lponning «Adabiyot nadur?» (1914) maqolasida o'rtaga tashlangan «Adabiyot yashasa — millat yashar» degan foya milliy uyfonish uchun ham da'vat bo'ldi. 20-y.lar o'rtalarigacha adabiyotshunoslik, asosan, adabiy tanqid doirasida faoliyat ko'rsatdi. Shu paytlardan e'tiboran sho'ro hukumati uni o'z yo'riga sola boshladi. Ijod mahsulini baholashda mafko'ra, o'tkinchi siyosat bosh mezonga aylandi. Adabiyot va Adabiyotshunoslikdan bir yoqpama (markscha) dunyoqarash b-n qurollanish, voqelik va uning badiiy in'ikosi bo'lmish san'atga faqat sinfiy kurash, sho'rolar mafkurasi nuqtai nazaridan turib yondashish talab qilindi. Bularga qo'shimcha, mumtoz adabiy merosdan voz kechish tamoyili hukm surdi. Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Hofiz, Rumi, Huvaydo singari shoirlar yaratgan ma'naviy mulk o'quvchiga keraksiz, hatto, ziyonli deb e'lon qilindi. Abdurauf Fitrat, Otajon Hoshim kabi adabiyotshunoslar bunday qarashlarga qarshi chiqib, madaniy merosni himoya qilishgaurindilar. Shu yillari, muayyan kamchiliklardan holi bo'lmasada, dastlabki nazariy qo'llanma — adabiyotshunos Abdurahmon Sa'diyning «Amaliy, ham nazariy adabiyot darslari» (1924) yaratildi. Fitratning «Adabiyot qoidalari» (1926) darsligida esa o'z davri Sharq va Farb adabiyoti nazariyasi muammolari yoritildi. Shu muallifning «O'zbek adabiyoti namunalari» kitobida O'rxun-Enisey bitiklari, «Alpomish», «Kitobi dadam Qo'rquq», «Devonu lu'otit turk»dan parchalar berildi, Yassaviy, Boqirxoniy, Lutfiy, Atoiy, Navoiy, Bobur asarlaridan misollar keltirildi. 20-y.lar oxiri — 30-y.lar boshlarida sho'ro adabiy siyosatida partiyaviy tazyiq ostida sinfiy dushman axtarish ruhi kuchaydi, ijod erkinligi bo'fildi, vulgar sotsiologizm ko'rinishlari avj oldi. Abdulla

Qodiriyning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari zararli asar deb,

muallifning o'zi esa burjua adibi deb qoralandi. 30-y.lar o'rtasidan markaz Yozuvchilar uyushmasi qurultoyining qarori b-n rasmiy kuchga kirgan sotsialistik realizm metodi haqidagi aqidaning keng joriy etilishi oqibatida o'zbek adabiyotshunoslikga partiyaviylik, sinfiylik, foyaviylik, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik degan tushunchalar chuqur singib bordi. Mumtoz adabiyotga munosabatda uni saroy adabiyoti, diniy-klerikal adabiyot, reaksion yoxud progressiv deya bir xalq adabiyotini ikkiga ajratib talqin etish, ijodkorlar va ularning merosini sinfiy qarshilantirish tamoyili urfga kirdi. O'ziga xos yondashuv va tahlilni talab etadigan Yassaviy, Boqirfoniy, Boyqaro, Mashrab, Huvaydo, Amiriy, Feruz (Muhammad Rahimxon) kabi shoirlar merosi batamom qoralandi, ular ijodini o'rganish deyarli man qilindi. Sho'ro mafkurasining zufumi, tanqid va adabiyotshunoslikning jiddiy xatolari tufayli Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, So'fizoda, Elbek, Botu, Usmon Nosir singari shoir va yozuvchilar, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud kabi adabiyotshunoslar jisman yoxud ma'nan mahv etildilar. O'sha yillardagi nisbatan ijobiy faktlar sifatida So'fizoda, Oybek, Fafur Fulom, Hamid Olimjon haqida adabiy portretlar yozilganini, Izzat Sultonning «Adabiyot nazariyasi» darsligi va b. monografiyalar nashr etilganini qayd etish mumkin. Biroq 40-y.lar oxiri — 50-y.lar boshlarida adabiyotshunoslik fani kosmopolitizmga qarshi kurash, yagona oqim, konfliktsizlik nazariyasi deb nomlangan xato yo'llarni bosib o'tishiga ham to'g'ri keddi. Ayni shu yillari Oybek, Maqsud Shayxzoda va b. mualliflarning tarixiy yo'nalishdagi asalari yaratildi.

NUKTASANJ SHE'RSHUNOS

Tong saharlab darvoza taqilladi. Endi namozi bomdoddan forif bo'lgan mo'ysafid borib darvoza zanjirini tushirdi. Eshik oldida 35-40 yashar ayol garmisel urgan niholday rangpar qizcha bilan turardi.

– Pirim, qizim orif dardga chalinib qoldi, ko'rsatmagan tabibim qolmadi, oxirgi umidim sizdan.

– Marhamat, qani ichkariga kiringlar. Mehmonlar ichkariga kirib, tor

peshayvondagi ko'rpacha ustiga o'tirishdi. Tabib qizchani tomirini ko'rdi, ikki chakkasini, qovoqlarini bosib, ko'zini taftish etdi, qovur'alarini ham, kuraklarining ostini barmoqlari bilan silab ko'rganday bo'ldi.

– Qizingiz ko'p qon yo'qotibdi, qorinda bal'am yirilgan, zardob ham ko'p, qoldirib ketsangiz, muolaja qilib ko'raman, – dedi tabib.

– Mayli xudo xayringizni bersin, eti sizniki, suyagi bizniki, – yalindi onaizor.

– Unday demang, rozi bo'lsangiz, qizingizni men farzandlikka ola qolaman.

– Mingdan-ming roziman, joni omon qolsa bo'ldi.

Tabib qizchani kampiri bilan bir oy davomida boqishdi, yuvib tarashdi, tomirdan qon olishdi, eng noyob dorilarni tayyorlab berishdi. Qizcha asta-sekin rangiga kelib, qayt qilishu qon ketishlari to'xtab, so'rayib ketdi. U yangi ota-onaning yumushini qilib, to'rt toshlardan dorivor gilyohlar terishda yordam berib yurdi.

Butun umrini ilm-fan, davlat ishlariyu tabobatga sarflagan bu zot hamyurtimiz Nizomiy Aruziy Samarqandiydir.

Nizomiy XI asrning 90 yillarida Samarqandda tug'ilgan. Uning bolalik yillari ona shahrida o'tgan, madrasada tahsil ko'rib, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha mukammal bilim olgan. Viloyat hamda taxt uchun feodal urushlar avj olgan bir paytda Nizomiy Aro'ziy Samarqandiy hozirgi Afyoniston hududiga o'tib, fo'riylar sulolasi hukmdorlari saroyida ishlaydi. Fazna, Fero'zkuh, Bomiyon va boshqa shaharlarda bo'ladi. Saljuqiylar, raznaviylar va fo'riylar olib borgan xonavayrongarchilik urushlarining bevosita guvohi bo'ladi. Nizomiy Avro'ziy Samarqandiy XII asrning 60 yillarida Bomiyonda vafot etadi.

Olimning bizga qadar yagona «Chahor maqola» kitobi etib kelgan. Olim o'z asarini 1156-1157 yillar orasida Bomiyonda yozgan. Xudo, payrambar va to'rt xalifa ta'rifiga barishlangan hamd va na'tdan tashqari to'rt fasl hamda bir hikoyatda dunyoning tuzilish, er sferasi, tabiatning moddiyligi, sezgi a'zolari hamda bilish haqida mushohada yuritilgan.

Shundan so'ng dabirlik ilmining sehri, she'r mohiyati va shoir salohiyati, yulduzshunoslik va munajjimlikning mohiyati, tabiblik va tib ilmining ahamiyati haqida to'rt maqola keladi. «Chahor maqola» O'rta Osiyo va Xuroson xalqlari ilm-fani,

madaniyati, adabiy-estetik qarashlari tarixi, u yoki bu yozuvchining hayoti hamda ijodiy merosini o'rganishda benazir manba hisoblanadi. Zeroki, muallif kitobda oldin o'tgan hamda o'ziga zamondosh bo'lgan ko'plab astronom, matematik, tib olimlari, adabiyotshunoslar, shoirlar hamda ilm-fanning boshqa sohalari vakillari nomini tilga olgan, asarlari xususida bahs yuritadi, turli munosabatlar bilan eslab o'tadi, baholi qudrat baholaydi. Ayniqsa, risolaning «She'r ilmining mohiyati va shoirning salohiyati», «Shoir va she'rning qanday bo'lishi» singari qismlari katta ilmiy, amaliy qimmatga molik. Chunki, bu bo'limlarda olim hozirgi kunda ham dolzarb masalalar hisoblangan ijodkorning burchi, mas'uliyati, o'ziga talabchan, hamisha izlanishda, o'rganishda bo'lishi xususida jiddiy fikrlarni yozgan. «Agar shoir yoshlik ayyomida va yigitlik davronida, – deb yozadi Nizomiy Aro'ziy, – o'tmish Shoirlarining she'rlaridan 20 ming baytni xotirasida tutmasa, zamondoshlarining asarlaridan 10 ming misrani yod bilmasa, ustodlar devonini doimo mutolaa qilmasa, so'zning nozik tomonlari va qiyin joylarini qanday yo'l bilan hal etganliklarini o'rganmasa, yuksak darajaga etmaydi. Hamda she'r navlari va yo'llari uning tabiatida o'z ifodasini topmaydi, she'rning yaxshi yoki nuqsonli tomonlari aqtining sahifasida o'z aksini ko'rsatmaydi, so'zlari buyuklik tomon, ta'bi noziki esa kamolot sari mayl ko'rsatmaydi». Ijodga loqayd qaraydigan, no'noq shoirlarni qoralagan adib yosh olimlarga, sohibiste'dod qalamkashlarga ramxo'rlik qilish, ularning tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish lozimligini alohida uqtirib o'tadi. «Shoir yosh bo'lsa-yu, she'rlari yaxshi bo'lmasa, ammo qobiliyatli bo'lsa uning yaxshi shoir bo'lishiga umid qilsa bo'ladi. Oliyjanoblik qoidasi bo'yicha bunday shoirning tarbiyasiga kirishish vojib, u haqda qayfurish farz, mehribonlik ko'rsatish shartdir», – deb ta'kidlaydi muallif. Shundan so'ng muallif yosh ijodkorlar she'riyat nazariyasiga doir o'tmish ajdodlar yaratgan asarlarni puxta bilishi, xususan, aruz va qofiya masalalariga doir kitoblarni o'rganish zarurligi haqida fikr yuritadi hamda mutolaa qilish lozim bo'lgan ilmiy risolalarning nomlarini sanab o'tadi.

Badiiy asarda shakl va mazmun birligi, she'riyatning inson tafakkuriga ta'siri, badiiy-estetik, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, o'tmish ajdodlarning madaniy-adabiy merosiga hurmat bilan qarash, ularni to'plash, ko'chirib kitob qilish

xususidagi mulohazalari katta ahamiyatga ega. Shoir va she'ning qanday bo'lishi, yaxshi badiiy asarning qadri, mangu barhayotligi xususidagi mana bu mulohazalar ham foyatda maroqtdir.

Muallifning fikricha, hukmronlar ijodkorlarga, shoirlarga e'tibor berishi lozim, ularni e'zozlash, asarlarini qadrlashi zarur. «Chunki podsho... o'lim farmonini olgach, uning lashkarlari, xazinasini va qimmatbaho narsalaridan hech vaqo qolmaydi. Faqat nomigina shoirlarning she'ri orqali boqiy qoladi... Shoir majlislarda shirinkalom va do'stlar davrasida ochiq chehra bo'lishi lozim. She'rlari esa hayot sahifasida boqiy qoladigan, pokiza tabiatli kishilar tilidan tushmaydigan, bayozlarga yozib olinadigan va shaharlarda o'qiladigan darajaga etgan bo'lishi zarur».

Yaxshi badiiy asarning barhayotligi, inson kamolotiga, estetik didiga ta'siri borasida fikr yuritganda Nizomiy Aro'ziy Hanzala Bad'isiy, Abu Abdulloh Ro'dakiy va Abulqosim Firdavsiylarning nomi hamda asarlarini hurmat bilan tilga oladi. Chunonchi, oddiy qo'shchi Ahmad Abdulloh al-Xo'jastoni Bad'isiyning ikki bayti ta'sirida jangovar sipohiy, mashhur lashkarboshi, oqibat natijada hukmdor darajasiga etadi. Forsiy tildagi she'riyatning asoschisi Rudakiyning «Bo'yi jo'yi Muliyon oyad hame», – deb boshlanadigan mashhur qasidasi amir Nasr Ibni Ahmad boshchiligidagi ayonlarda vatanga mehrni tufyon urdiradi. Sulton Mahmud «Shohnoma»ni etarlicha qadrlamadi, ammo bu asar hamon kishilarni gumanizm, vatanparvarlik, qahramonlik ruhida tarbiyalab kelmoqda. Muallif o'nlab shoirlar taqdiri va ijodi misolida ana shu xildagi mulohazalarni bayon etadi.

Nizomiyning bu asari ingliz, nemis, rus tillariga tarjima qilingan. Uni o'zbek tiliga esa sharqshunos Mahmud Hasaniy o'g'irgan.

Xullas, Nizomiy Aro'ziy Samarqandiyning ilmiy qarashlari, xususan, adabiyotshunoslikka doir nazariy mulohazalari hamon o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

USTODGA YoDNOMA

O'n beshinchi asr Sharq ilm-fani zarvaraqlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, har bir sahifa bo'stonida uluf bobokalonimiz, ustod san'atkor Alisher Navoiyning

muborak nafasi esib turadi. Zeroki, bu obidalar Navoiy maslakdoshi yoki shogirdi yoki shoirning moddiy va ma'naviy ko'magi bilan kamolotga etgan ijodkor yoxud uluf shoir ijod maktabidan saboq olib, uning qutluf an'anasiga sodiq biror san'atkor tomonidan yaratilgan bo'ladi. Mashhur yozuvchi Sadriddin Ayniyning aniqlashicha, Suhayliy, Sayfiy, Osafi, Binoiy, Kotibiy, Hiloliy, Koshifiy, Mushrifiy, Bihishtiy, Faxriy singari o'nlab fors-tojik shoirlari bevosita Navoiyning moddiy va ma'naviy yordamida kamolot cho'qqisiga ko'tarilgan.

«Badoe'-us sanoe'» asarining muallifi Atoullo Mahmudi Husayniy ham genial mutafakkir yordami, madadidan bahramand bo'lgan ijodkorlardan hisoblanadi.

Atoullo Mahmud Husayniy XV asrning 30-40 yillari o'rtasida Nishopurda tufildi. Atoullo Hirotida tahsil ko'radi, tez orada «adabiyot bilimdoni» sifatida shuhrat qozonadi. Iste'dodli adabiyotshunosning dovrufini Navoiy ham eshitadi. Navoiy Atoullo bilan shaxsan tanishib, uni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Mashhur tarixchi Fiyosiddin Xondamirning «Makorim-ul-axloq» asarining to'qqizinchi bobida hikoya qilinishicha, Hirotning «Ixlosiya», «Sultoniya» singari katta madrasalarida mudarrislik qilgan Atoulloga Navoiy davlat hisobidan maosh ajratgan va «jannatmisol» hovli in'om etgan. «Xulosat-ul-axbor», «Makorim-ul-axloq», «Majolis-ul-nafis» kabi manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, Navoiy Atoulloning hayoti va faoliyatini doim kuzatib borgan, o'z huzuriga chorlab, adabiyotshunoslik masalalari bo'yicha suhbatlar qurgan, badiiy san'atga doir asar yaratishga undagan. «Badoe'-us-sanoe'» ana shu ko'mak va da'vat natijasida yuzaga kelgan.

Atoullo Mahmud Husayniy adabiyotshunoslikka doir bir necha asarning muallifi, iste'dodli shoir hisoblanadi. Afsuski, hozirgacha ana shu zabardast donishmandning hayoti va ijodiy merosi e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Ayrim maqolalardagi Atoulloga doir fikrlar chalkash, noaniq. Iste'dodli sharqshunos olim professor R.Musulmonqulov yaqin o'n yil davomida olimning ijodiy merosini o'rgandi, dunyo dastxat xazinalaridagi asarlarining nusxalarini qiyosiy tahlil etib, «Badoe'-us-sanoe'»ning ilmiy-ommaviy nashrini («Irfon» – 1974) yaratadi.

«Atoullo Mahmud Husayniy va fors-tojik she'riyati poetikasi masalalari» risolasini yozdi. Olimning ko'p yillik zahmati natijasida shoirning hayot yo'li va ijodiy merosi mukammal aniqlandi. Tadqiqotchi kitobga yozgan so'z boshisi va ilmiy risolasida Atoullo va uning «Badoe'-us-sanoe'» asarining yaratilishi haqida fikr yuritib, Alisher Navoiy bilan Atoullo o'rtasidagi yaqin do'stlik, ijodiy hamkorlikni alohida qayd etadi. XV asr adabiy-nazariy qarashlarida katta bir voqea bo'lgan bu asar bevosita Navoiyning xohishi, moddiy-ma'naviy homiyligi tufayli yaratilganligini isbotlaydi va «bu bir tomondan, u (Navoiy)ning olijanob inson, olim va adiblarning murabbiysi hamda homiysi ekanligini ko'rsatsa, ikkinchi tarafdin, o'zbek va tojik xalqlarining ikki uluf farzandi o'rtalaridagi samimiy munosabatlarni ko'rsatadi».

Haqiqatda ham Navoiy bilan Atoullo bir-biri bilan doim muloqotda bo'lgan, bir-birlarining ijodiy ishlarini hamisha kuzatib borgan. Masalan, Navoiy «Majolis-un-nafois»da Atoulloning iste'dodi haqida samimiy fikrlarni aytib, bir o'rinda «Badoe'i Atoiy» nomli asar yozayotganligini ta'kidlasa, keyinroq bu asarni bitib, «bayozfa borfoni»ni aytadi.

«Badoe'-us-sanoe'» «Debocha» va «Xotima»dan tashqari yana uch katta bobdan iborat. Unda 150 ga yaqin so'z san'ati va qisman adabiyotshunoslik terminlarining qonun-qoidalarini bayon etib, izohni beradi, mashhur shoirlar va o'z she'rlaridan namunalar keltiradi. Ko'p adabiyotshunoslardan farkdi o'laroq Atoullo san'at va terminlarni mukammal yoritadi, mufassalroq sharhlab, xarakterli dalillar keltiradi. Asar juda katta adabiy, nazariy, ilmiy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, adabiyot tarixini, ayrim adabiy-tarixiy hodisalar va faktlarni o'rganishda ham foyatda qimmatli manba hisoblanadi. Zeroki, Atoullo ellikka yaqin shoirlar ijodidan misollar keltirgan, mashhur san'atkorlar bilan bir qatorda hali ilm-adab ahliga kam ma'lum bo'lgan Bahromiy, Rizoii, Nishopuriy, Kotibii, Naziriy kabi ijodkorlarning she'rlaridan ham namunalar bergan.

«Debocha»da Atoullo o'z asarini «mulku millatning quvvati» Alisher Navoiyga barishlanganini alohida ta'kidlaydi. Bundan tashqari olim «Badoe'-ul-sanoe'»ning ko'p joylarida, turli munosabatlar bilan Navoiyni qayta-qayta tilga

oladi, unga atab yozgan she'rlarini ilova qiladi, shoir asarlaridan baytlar keltiradi. Atoulloning Navoiy haqidagi fikr va she'rlari uluf shoir hayoti va ijodining ayrim tomonlarini o'rganishda jiddiy ahamiyatga molik. O'z ustodi, homiysiga atab bitilgan mazkur asarning ko'p o'rinlarida Navoiy bilan bo'lgan munosabati hakida samimiy va mamnuniyat bilan yozadi. Chunonchi, Alisher Navoiy nihoyatda muhtasham madrasa qurdirgani, 1486 yilning 9 iyulida uning ochilish marosimi bo'lganini qalamga oladi:

Chun madrasa soxt Mir bo ilmu adab,
Farmud maro ifodai axdi talab.
Chun dar shasho'mi mohi rajab kard yuklos,
Ta'rix talab az «shasho'mi mohi rajab».

(Mir (Navoiy) ilmu adab bilan madrasa qurib, meni unga mudarris etib tayinladi. Bu voqea rajab oyining oltinchisida bo'lgani uchun uning tarixini «shasho'mi moxi rajab»dan top).

Darhaqiqat «shasho'mi mohi rajab»ning tarix moddasi hijriy 891 yil, rajab oyining oltisi, melodiy 1486 yil 9 iyul bo'ladi. Ayrim nasriy va she'riy misralarda esa, bevosita buyuk shoirning hayoti hamda faoliyati bilan borliq sanalar, voqealar zikr kilinadi.

Quyidagi to'rtlikda Alisher Navoiyning Astrobodga hokim etib yuborilishi sanasi o'z ifodasini topgan:

On miri olisayr – Alisher
K-o'rost kamoli fazlu tadbir,
Chun kard qabul boz amorat,
Ta'rix shudash: «amorati mir».

(Fazlu tadbirda kamol bo'lmish ul olijanob mir Achisher yana amirlikni qabul etganda tarixi «amorati mir» bo'ldi).

«Amorati mir»ning tarix moddasi hijriy 892, melodiy 1487 yil bo'ladi.

Sahli mumtane' – (osonu nomumkin) istilohini sharhlar ekan, Atoullon Navoiyning «turkiy va forsiy tildagi asarlari» ham «sahli mumtane'»dir, deydi-da, «bu kitob ul hazratning davlat va himmatlari, da'vatlari bilan yozib bitkazildi»

(204-bet), deb alohida ta'kidlaydi.

Atoullo Mahmud Husayniy madadkori va homiysi Navoiyga asarlarining manzur bo'lishini istar, «unda biron bir xato uchrasa, uzr raqamin chekib, mushk hidi anqib turuvchi qalamlar bilan isloh etishlarini» (12-bet) xohlar edi. Atisher Navoiy o'z vaqtida «Ma'lum emaskim, bu fanda hargiz hech kishi oncha jome' va mufid kitob bitmish bo'lgay» («Majolis-un-nafois»), deb risolani yuksak baholagan edi.

Atoulloning «Badoe'-ul-sanoe'» asari sharqshunos olim Alibek Rustamov tomonidan o'zbek tiliga ham (1981) tarjima qilingan. Tarjima xususida shuni ta'kidlash lozimki, «Badoe'-ul-sanoe'» nazariy asar bo'lgani uchun uslubi o'fir, adabiy terminlar XV asr adabiyotshunosligi an'analariga qat'iy rioya qilingan holda qo'llanilgan. Mutarjim asl nusxani bus-butun saqlashga muvaffaq bo'lgan. Matndagi ko'pgina termin va iboralarning tutib qolinishi, she'riy parcha, misollarning aslini tekst tarkibida keltirib, mazmuni yoki sharhini izohtsa berilishi ham maqsadga muvofiqdir.

O'rta Osiyo xalqlari adabiy-estetik qarashlari tarixini ayrim jihatlarini o'rganish, Navoiy faoliyatining ba'zi tomonlarini yanada to'laroq tasavvur etishga yordam beradigan bu kitob hozirgi adabiyotshunoslik, ayniqsa, aruzshunoslikda muhim dasturulamal bo'lib qoladi.

ALII SONIY DERLAR

Tarix – Sharq klassik adabiyotining eng mo''jaz, ammo keng tarqalgan janrlaridan biri hisoblanadi. She'rshunoslar uning vujudga kelishini IX asr bilan borlaydilar. Ammo tarixning janr sifatida to'la shakllanishi X-XI asrlarda yuz beradi. Bu davrlarda bir bayt yoki to'rtlikda u yoki bu tarixiy sana, biron bir buyuk shaxs – davlat arbobi, adib, mashoyixning turilgan yili, vafot etgan sanasi qayd etiladi. Bora-bora bu janrda so'z o'yini yoki harflar qaydi (ta'kidi) orqali muhim bir voqea, sanani ifodalanganligiga ishora qilinadi. Bunda bir tomondan, baytda biron badiiy san'at, ibora ishlatilishiga erishilsa, ikkincha tomondan, arab grafikasidagi harflarning qaysi raqamni ifodalashi hisobga olingan. Tarixning ma'naviy, noqis, zoid, qit'ai tarix kabi turlari mavjudkim, ular san'atkordan o'ziga xos zukkolikni talab etgan. Masalan, shoir baytda bir yoki ikki so'zga o'quvchi

diqqatini jalb etib, uning tarix moddasiga ishora qiladi:

Saru sarkardai arbobi suxan,
Az ramobodi jahon xurram raft.
Guft ta'rixi vafotash Ozod,
«Mirzo Bedil az olam raft»

(So'z mulki arboblarning sarkardasi bu jahon ramxonasidan shod ketdi.
Uning vafoti tarixini Ozod «Mirzo Bedil olamdan ketdi», deb ta'kidladi).

Oxirgi misra harflari miqdorini topib, bir-biriga qo'shsak, Bedil vafot etgan 1721 yil chiqadi.

O'tmishda shoir va yozuvchilar yo'l-yo'lakay turli voqea va hodisalar sanasiga barishlab tarix yozishdan tashqari, bir necha asrlarda yuz bergan voqealar yilnomasiga barishlangan maxsus tarix kitoblari ham yaratishgan. Said A'lam Sharofiddin Roqimiyning «Tarixi tomm» asari ana shunday kitoblardan biridir. Adibning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar etarli emas. Tufilgan hamda vafot etgan yili ham aniqlanmagan. Uning yoshligi Andijonda o'tgan. O'qish maqsadida Samarqandga kelib, shu erda madrasani xatm etadi va mukim yashab qoladi. Biz Rokimiyning ijodiy faoliyati qachondan boshlanganligini bilmaymiz. Uning bizga qadar 1680 yili yozilgan katta hajmdagi «Tarixi tomm» asari ma'lum. Muallif 1701-1702 yillari risolaning muxtasarroq bir nusxasini ham yaratgan. Ana shu nusxa 1913-1914 yillari toshbosma usuli bilan Vazehning «Tuhfat-ul-ahbob fi tazkiratul ashob» tazkirasiga ilova tarzda chop etilgan. Ushbu nusxaning bizga qadar bir necha dastxati saqlanib qolgan. Asar juda katta ilmiy, adabiy tarixiy, ma'rifiy, estetik ahamiyatga ega. Unda o'nlab fiqh donishmandlari haqida ham ko'p ma'lumot bor. Yaqinda ana shu nodir kitobni professor Haydarbek Bobobekov shaxsiy xazinasida saqlanayotgan nusxasini nozikbin sharqshunos, dotsent Naim Norqulov forsiydan o'zbek tiliga tarjima qildi. Biz asl nusxani ham, o'girmani ham sinchiklab o'qib chiqishga muyassar bo'ldik. Kitob shu xildagi boshqa asarlardan bir necha jihatlari bilan jiddiy farq qiladi.

Dastlab shuni ta'kidlash lozimki «Tarixi tomm»da 1633-1644 hamda 1645-1701 yillar davomida Eron va O'rta Osiyoda yuz bergan voqealar, sodir bo'lgan

hodisalar, yashab o'tgan tarixiy shaxslarning hayoti hamda faoliyati haqida ma'lumot mavjud. Undagi tarix-she'rlar mundarija, royaviy yo'nalish jihatidan royatda ibratli, nasriy kiritma yoki xotimalar dalillarga boy va qiziqarlidir. Tarixlarni mavzu doirasiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Bir silsila tarixlar Sharq ijtimoiy-siyosiy hayot darajalarining turilgan yillari yoki vafoti, biron urushdagi falaba yoki biron o'lkani zabt etish sanalari, bir sulolaning saltanatdorlik muhlati, biron shahar yoki obidaning bunyod etilishiga barishlangan to'rtliklardir. Bunday she'rlar bizning O'rta Osiyo xalqlari tarixi, davlatdorligi haqidagi bilimimizni mukammallashtiradi, tafakkurimizni charxlaydi. Masalan, muallif Sohibqiron Amir Temur vafot etgan yiliga barishlangan tarixlarni keltirar ekan, «Ul hamida sifatlar hayotining muddati etmish ikki yilu ikki oy 8 kun bo'ldi. Sohibqironning er avlodidan vafot vaqtida o'ttiz olti nafari hayot edi... Sohibqironning mukarram qizlaridan ismat pardasida bo'lgan va uhob lihofidagi mafurur o'n etti nafari mavjud edi», deb aniq ta'kidlagan va Amir Temur vafoti sanasiga barishlangan sakkizta tarixni keltirgan. Ubaydulloxonning Naj-mi Soniyni daf' etib, Movarounnahrni eroniylar bosqinidan batamom xalos etganini alohida qayd etar ekan, muallif «uruflaridan biron cho'ng bo'laturfonda taxtni ixtiyor etmasdilar», degan fikrni bayon etadi. Asli yamanlik bo'lgan Miri Arab bilan Ubaydullohxon o'rtasidagi ustod-shogirdlik, piru murshidlik haqidagi qiziqarli ma'lumotlar Miri Arab madrasasining qurilishi tarixini she'rga solish munosabati bilan keltirilgan. Mirzo Ulufbek, Shayboniixon, Amir Shayximlar haqidagi dalillar ham asosli va xiyla maroqlidir.

Mazkur risoladagi tarixlarning katta qismi XV-XVI asrlarda Eronu Turon sarzaminlarida yashab o'tgan mashhur mashoyixlarning hayot sanalariga barishlangan. Biz bu fasllarda ham rang-barang lavhalar, dalillarni uchratamiz. Xususan Said Ali Hamadoniy, Lutfulloh Nishopuriy, Bahovuddin Naqshband, Taftazoniy, Muhammad Porso, Qosim Anvor, Hasan Kubroviy, Xoja Ubaydullo Ahror, Shayx Xudoydod, Maxdumi A'zam, Abubakr Toyobodiy, Qozi Poyanda Zominiy, Xojagi Amkanagiy, Yusuf Qaraboriy singari o'nlab mashoyixlar xususidagi lavhalar ham katta ilmiy va badiiy qimmatga ega. Zeroki, Roqimiy tarix

bahonai sababi bilan, bir tomondan, bu zoti bobarakotlarning haq yo'lida chekkan riyozatlarini bayon etsa, ikkinchi tomondan, ularning ilm o'rganish, xalq orasida islomiy ahkomlarni tarfiib va tashviq etish bo-rasida chekkan zahmatlarini qayd etadi: karomat va bashoratlaridan ba'zi lavhalar chizadi. Agar xalifa hazrati Ali islom davlatini mustahkamlash, uning hududini kengaytirishda katta jasorat ko'rsatgan bo'lsa, shayx Said Hamadoniy Ma'ribu Mashriqni piyoda kezib, yuz minglab rayridinlar qalbini islom nuri bilan yoritishga muyassar bo'lgan allomadir. Shuning uchun «Ul zotni «Atii Soniy» der erdilar... Uch navbat rub'i maskun aksarini sayr qildi. Shu saodatli yo'lda bir ming to'rt yuz nafar valiyning suhbatiga musharraf bo'ldi». Asarda juda ko'p mashoyixlarning hayotlari haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar, kitoblarining aniq ro'yxati berilgan. Hozirga qadar ilmiy-nazariy adabiyotlarda toshkentlik fiqh donishmandi, «Samarqand viloyatining a'lam-ul ulamosi» darajasiga etgan Amir Fathiy haqida ma'lumotlar kam. Roqimiy 1635 yili vafot etgan Fathiy xususida quyidagilarni yozgan: «Xullas, bul fazilatlar bahri muhiti, hikmat va kamol manbaining tasnif va ta'liflari juda ko'p. Jumladan «Kitobi jome'-ul ma'qul va manqul», ikki jilddan iborat «Kitobi zodil oxirat»: birinchi jildi «Qisas-al anbiyo», ikkinchi jildi «Salot ir-Rahmon»dir. Boshqa asarlari ham ko'p. Shuncha fazilatlarga qaramay, gohida she'r ham bitur erdilar». Roqimiyning ajdodlari asli toshkentlik ekan. Chunki kitobda «Fathiy mening bobokalonim edilar. U kishining ayrim asarlari qo'lyozmasi menda saqlanadi», degan fikr mavjud.

Ma'lumki, o'tmishda ko'hna Xurosonu Movarounnahrda etishib chiqqan so'z san'atkorlarining aksariyati jahongashtayu jahondida bo'lgan. Shu sababli ularning hayot yo'li va ijodiy faoliyatlari xususidagi dalillar ham dunyoga sochilib ketgan, turli sarchashmalarda sabt etilgan. Vaqtlar o'tishi, yangi dastxatlarning topilishi munosabati bilan bu buyuk zotlar faoliyatining yangi qirralari muayyanlashib boradi. «Tarixi tomm» ana shunday dalillarga boy, serfayz dastxatlardandir. Unda Hofiz, Sa'diy, Kamol, Jomiy, Navoiy, Binoiy, Bobur, Koshifiy, Kotibiy, Mushfiqiy singari ulkan san'atkorlarning shaxsiyati bayoni va asarlari tavsifi ham ancha boydir. Ular bu adiblarning tarjimai holini yanada

mukammalroq tasavvur etish, ijodiy niyatlarining ba'zi jihatini to'la idrok etishga ko'maklashadi. Hozirgacha adabiyotshunoslikda To'xtamishxon Tabrezni forat qilganda Kamol Xo'qandiyni ham Saroy shahriga asir qilib eltgan, shoir bu erda faribona umr kechirgan: Amir Temur To'xtamishni enggach, shoir yana Tabrezga kelib, Valiyonko'hdagi «Bihisht» otlif borida nochor hayot kechirgan, mazmundagi fikr mavjud. «Tarixi tomm»dagi mulohazalar bu fikrni tuzatadi va to'ldiradi. «Viloyat fath etilgandan keyin hazrati Shayxni To'xtamishxon farmoniga ko'ra Dashti Kipchoqqa – Saroy shahriga olib ketganlar. Ul joylarning ob havosi fryatda yaxshi edi, Hazrati Shayx tab'iga xush keldi. O'sha holda bu matla' ul Hazratning xurshed kabi tab'lari ufuqidan tulu' qildi. Matla':

Agar saroy hamin ast, dilbaroni saroyi,

Biyor boda, ki forif shavam zi har du saroyi.

(Agar Saroy shahri shu bo'lsa, ey saroy dilbarlari! Menga boda keltiringlar, toki har ikki olam tashvishidan qutilay).

To'rt yildan keyin Shayx Tabrez viloyatiga qaytdilar. Sulton Husayn No'yon Tabrez viloyatida hazrati Shayx uchun Xonaqohi Nodiriyni qurdirdi. U xizmatkorlar Ka'basi va zohidlar qiblasidir. Bu imoratning peshtoqi niyoz ahlining mehrobidir, darvozalari fayz eshigidek ahli dillar uchun hamisha ochiq. Oliy martabali sulton mulkining ko'pini o'sha xonaqoh uchun vaqf qilib bergandi.

Hazrati Shayx amirzoda Mironshoh davlati va saltanati davrigacha hayot edilar. Sanayi 793 yilda (melodiy 1391) qazo kotibi ul zot hayoti devoni matla'ini mamot maqtaiga kiritdi. Tabrezning Surxob mavzeidagi Valiyonko'hda ul zot madfundurlar. Nurlarga to'la qabri lavhiga bu matla'ni raqam qilganlar. Matla':

Kamol az Ka'ba rafti bar dari do'st,

Hazorat ofarin, mardona rafti.

(Kamol, Ka'badan do'st eshigiga ketding, ming ofarin, mardona ketding).

Sharq adabiyotshunosligiyu fiqh fanida Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodiy faoliyati xiyla puxta o'rganilgan. Hatto, u haqda «Xamsatul mutahayyirin», «Maqomoti Jomiy» singari kitoblar ham yaratilgan. Sharofiddin Roqimiy ham Jomiy vafotiga atalgan tarixlarni keltirishdan oldin shoirning ajdodlari, ota-onasi,

vatani, Navoiy bilan ustoz-shogirdligi haqida batafsilroq naql etadi, 40 ta asarining ro'yxatini beradi, tavsiflaydi. Muallifning mana bu qaydlari, ayniqsa, e'tiborga loyiqdir: «Aytishlaricha, ul zotning volidai shariflari zamon hodisalari va davron inqilobi tufayli Isfahondan Xuroson mulki tarafiga ko'chganlar. Jom viloyati Xarjurd qasabasida Hazrati Zindafili Ahmadi Jom turbati yaqinida maqom tutganlar. Keyin, shu erda oila qurganlar».

Ulkan lirik shoir, zabardast dostonnavis Urfii Sheroziyning hayot yo'li ro'yatda murakkab kechgan. Bir umrga muhtojlikka mahkum etilgan shoir hech kimga bosh egmagan, birovga tama' qo'lini cho'zmagan. Ko'p amirlaru shahzodalar uni o'z dargohlariga tortmoqchi bo'lishgan, ammo bunga erisholmagan. «Tarixi tomm»da Urfiyning Hindistonda kechgan umri xususida quyidagi lavha keltirilgan: «Ul zot podshohi Jam suhbatidan o'zini kanorga tortib yurdi. Qancha taklif qilishmasin, dargohni ixtiyor etmadi. Oxiri bir kun Mavlono Urfiy uchun bir pora oltin jo'natishdi. Ul Mavlono bolaxonasida o'tirganicha podshoh in'omini istiqbol etmadi va ushbu ruboiyni badeha tarzida aytdi. Ruboiy:

Urfii mo dili hud digargun nakunad,
Daryuza ba juz darun purxun naqunad.
Somoni bihisht agar az in ko'cha kashand,
Ummedi sar az daricha berun nakunad.

(Urfimiz o'z qalbini o'zgartirmaydi, oshufta dilini faqat purxun etadi. Taqdir bihishtni shu ko'chadan o'tkazsa, umid boshini darichadan tashqari chiqarmaydi).

Fors-tojik she'riyatining zabardast siymolaridan biri Abdurahmon Mushfiqiy noziktab fazalgo'y, saliqali doston-saro bo'lish bilan birga o'tkir hajvchi sifatida Sharqta mashhurdir. U, hatto hozirjavob zarofatgo'y donishmand tarzida xalqning ikkinchi Nasriddin Afandisiga aylangan. Ayni paytda Mushfiqiy peshqadam matematik, astronom hamda rammol ham ekan. «Tarixi tomm»dagi ma'lumotlar adib ijodining ana shu kamyob sahifalari xususidagi tushunchamizni oydinlashtiradi: «Mushfiqiyning tab'i obu tobi ilmi hikmatdan Jolinus kabi boxabar, hay'at bobida Batlimus erdi. Hisob ilmida shunday komil ediki, oqillar aqli uning tasavvuridan ojiz va zako ahli zehni uni fahmlashdan qusurli va noqis

edi». Ayrim tadqiqotchilarning asarlarida «Ulufbekdan so'ng Movarounnahrda matematika va astronomiya fanlari mutlaqo tanazzulga yuz tutdi», degan mushohadalar mavjud. Mushfiqiy va Hoji Yusuf Hay'atiylar handasa hamda hay'atshunoslik sohasida erishgan yutuqlari bunday fikrlar asossiz ekanligini isbotlaydi. «Tarixi tomm» hali jiddiy o'rganilmagan. Ulardagi ayrim tarixlar marhum sharqshunos A.Juvonmardievning «Harflar raqamlarga aylanganda» (1966) kitobida keltirilgan va izohlangan, xolos.

Xulosa qilib aytganda, Sharofiddin Roqimiyning asari xalqimiz tarixi, madaniyati, ilm-fani, badiiy adabiyoti, falsafiy hamda islomiy tafakkuri tarixidan rang-barang dalillarga boy manba. U qanchalik tez chop etilib, ommalashtirilsa, ilm-adab ahli shunchalik xushnud bo'ladilar. Asarning mukammal nusxasini topish va o'zbek tiliga o'girish matnshunos hamda mutarjimlarimizning kechiktirilmas vazifalaridan biridir.

SHE'R ILMINING SAROMADI RO'ZG'ORI ERUR

Ma'naviyatimiz tarixida shunday sarchashmalar borki, ularni har gal mutolaa qilganingizda yangicha zavq, olam-olam taassurot olasiz, bilimingiz teranlasha boradi. Mashhur adabiyotshunos, shoir hazrat Navoiyning nazari tushgan alloma Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ul shuaro»si ana shunday obidalaridan biri. Kamina «Shohnoma» va o'zbek adabiyoti» muammosini o'rganib yurgan kezlaringizda tazkiraning Firdavsiyga oid faslinigina o'qib chiquvdim. Asarni ikkinchi da'fa mukammal ko'zdan kechirganimda u haqdagi fikrlarim mutlaqo o'zgardi, Sharq adabiyoti haqidagi ko'p qarashlarim to'lishdi, Asadi Tusiy ijodining yangi nuqtalari aniqlandi.

Davlatshoh taxminan 1436-1438 yillar orasida Samarqandda tufilgan. Uning to'la ismi Amir Davlatshoh Valadiy amir Aloviddin Baxtishohiy Foziy Samarqandiydir. Otasi Alouddavla asli isfaralik bo'lib, Shohruh Mirzoning lashkarboshlaridan ekan; akasi amir Rizoiddin Ali bo'lsa Abulqosim Bobur hamda amir Muhammad Xudoydodlar dargohida nadimlik vazifasini o'tagan; forsiy va turkiyda she'r bitgan. Bo'lajak adabiyotshunos yoshligidan ilm o'rganish bilan

jiddiy shuʼullanib, zamonasidagi diniy hamda dunyoviy bilimlarda kamolot kasb etadi. Fazlulloh Samarqandiy qoʻlida tahsil koʻradi, arab tili va adabiyotini puxta oʻrganadi. Shundan soʻng u Hirotga kelib Husayn Boyqaro saroyiga xizmatga kiradi, Andxoʻy jangida sarboz sifatida ishtirok etadi. Navoiy amir Shayhim Suhaylilar bilan oshnolik paydo qiladi. Ammo tez orada bu vazifani tark etib, «ajdodlari amirzoda», oʻzi barcha sohada «kamolot kasb etgan» (Navoiy) boʻlishiga qaramay, umrining oxirigacha dehqonchilik bilan shuʼullanib, taxminan 1495-1498 yillar orasida vafot etgan.

Alisher Navoiyning maʼlumotiga qaraganda, Davlatshoh ruboiy, ʼazal, qitʼa, masnaviy, qasida, tarix, marsiya janrlarida yaxshi sheʼrlar bitgan isteʼdod egasi boʻlgan. Uning qasidolari vasfiy mohiyatiga ega boʻlib, Jomiy, Husayniy, Navoiy kabi zamondoshlariga barishlangan. Aftidan Davlatshoh forsiy va turkiy tillarda barobar ijod qilganga oʻxshaydi. Zero,ki, uning bisotida parokanda oʻzbekcha baytlar, bir mulammaʼ uchraydi. Davlatshoh sheʼrlarida koʻproq ijtimoiy, falsafiy, axloqiy-taʼlimiy masalalar oʻz aksini topgan. Tajnis, majoz, tazod kabi sanʼatlardan zoʻr mahorat bilan foydalangan. Quyidagi ruboiy fikrimizni tasdiqlaydi:

Ey hamnafason, achab saroest chahon,
Boshed az in saroy badmehar chahon,
In ast dar in chahoni dun kori mehon,
Chun kori mehon chunin buvad, voy kehon.

(Ey hamnafaslar, bu jahon ajoyib bir saroydir, bu mehrsiz saroydan ehtiyot boʻling, bu jahonda uluflarni ishi teskaridir, shunday boʻlgach, kichiklarning holiga voy).

Bu xushtaʼb shoir va nuktafahm olimga jahoniy shuhrat keltirgan asar «Tazkirat-ush-shuaro»sidir. Davlatshoh Samarqandiy bir umr dehqonchilik bilan shuʼullangan boʻlsa-da, muttasil tarzda zamonasigacha boʻlgan forsiy sheʼriyatning tarixiga doir dalillarni jamladi, majmua, devonlarni koʻzdan kechirdi, oʻzigacha yashab oʻtgan shoirlarning hayoti, faoliyati, ijodiga doir sarchashmalarni oʻrgandi; Saljuqiylar davri adabiyotshunoslari Abu Tohir Xotuniy, Nizomiy Aruziylarning

asarlaridan fayz topib, 1487 yili «Tazkirat-ush-shuaro» asarini yozib tugatdi va Alisher Navoiyga taqdim etdi. Muallif tazkirasini yozishda unda zikr etilgan adiblarning o'z asarlaridan tashqari «Tarixi Bayhaqiy», «Masolik va Mamolik», «Hadoyiq-us-sehr», «Tarixi Guzida», «Tarjimon-ul-balofa», «Suvari aqolim», «Tazkirat-ul-avliyo», «Nizom-ut-tavorix», «Javome'-ut-tavorix», «Tarixi Juvayniy», «Xulosai Banokatiy», «Maqomati Nosiriy» kabi o'nlab manbalardan keng istifoda etgan. Lekin negadir muallif bizgacha etib kelmagan yoki hali qo'lyozmasi topilmagan «Manoqid-ush-shuaro»ni eslab o'tgan holda, Muhammad Avfiyning «Lubob-ul-albob» tazkirasini qayd etmagan.

«Tazkirat-ush-shuaro»da o'tmishda yashagan 153 ta va zamondoshlaridan 7 ta shoirning hayoti hamda ijodiy faoliyati haqida ma'lumot berilgan. Adib asar muqaddimasida she'rning paydo bo'lishi haqida batafsil ma'lumot berib, arab shoirlaridan 10 nafarini zikr etadi. Xotimada esa, zamondoshlarining hayoti, faoliyati va adabiy merosini zikr etadi. Bundan tashqari, Davlatshoh u yoki bu adabiy muhit doirasining zabardast vakili to'frisida fikr yurita turib, o'sha doira va maxfilda umr surgan 120 ijodkorlar haqida ham yo'l-yo'lakay bo'lsa-da qiziqarli dalillar keltirgan. Ibn Sino, Umar Hayyom, Fazzoliy, Kaykovus, Nasriddin Tusiy, Alaxastiylar xususidagi ma'lumotnomalar alohida fasllarni eslatadi. Bundan tashqari adibning Saolibiy, Faxriddin Roziy, Abu Suhayli Sa'lukiy, Avhaduddin Kirmoniy, Muhammad Ko'histoniy, Sadrush Shuaro Buxoriylar haqidagi dalillari ham diqqatga molik.

Eng muhimi shundaki, Davlatshoh qalamga olgan har bir shoiri haqida iloji boricha mukammalroq ma'lumot berishga – ismi sharifi, laqabi, turilgan eri, ajdodi, ilm o'rganish bobidagi riyozati, kasb-kori, necha yil umr ko'rgani, vafoti tafsili, qabrining o'rni, ustoz, shogirdi, mamduhu homiysi, moddiy ahvoli, merosi, asarlarining nomi, janr tabiati, mavzu doirasi, til va uslubi haqida batafsil fikr yuritishga intiladi, u yoki bu adibning fe'li, hayotidagi nozik daqiqalar, xarakter, ruhiyatiga doir qiziqarli dalillarni keltirib o'tadi. Shunisi diqqatga molikki, Davlatshoh biron bir adibning ijodi va hayotiy faoliyati haqida fikr yurita turib asarlarining tarqalishi, devonining mavjud yoki mavjud emasligi, xalq tomonidan

sevib o'qilishi, buyuklarning nazari tushganligi, unga payravlik qilgan ijodkorlar, ba'zi bir janrlarning paydo bo'lishi, xullas, adabiy jarayonning barcha jabhalarini yoritishga harakat qilgan.

Davlatshohning fikricha, she'r inson yaratilgan kundan boshlaboq uning ruhiy kechinmalarini aks ettirish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Shuning uchun uning tarixi juda ko'hna. Jumladan, olim forsiy tildagi she'riyatning islomdan bir necha asrlar burun vujudga kelganligini ko'p dalillar bilan aniq isbotlagan. Tazkirada shunday bir naql keltirilgan: «Abbosiylar xalifaligi zamonida Xuroson raisi bo'lib turgan Abdulloh binni Tohirga kunlardan bir kuni Nishopur shahridan bir kishi unga qo'lyozma kitobni taqdim etdi.

- Bu qanday kitob? – so'radi Rais.

- Taqsir, bu «Vomiq va Uzro» qissasi. Uni hakimlar podsho Anushervon uchun yozishgan – deb javob berdi u.

- Biz qur'onxon odamlarmiz. Bizlar Qur'on va payfambar hadislaridan o'zga kitobni o'qimaymiz. Bizga bunday kitob kerak emas, uni muflar yozishgan, muflar yaratgan har qanday kitob biz uchun zararlidir, - dedi-da, o'sha kitobni soyga tashlab oqizib yubordi. Shundan so'ng Xuroson raisi mening hukmronligim hududida muflar va ajamliklar yaratgan har qanday kitob yoki maqolalar qo'lga tushsa, o'tga tashlab kuydiringlar, deb farmon chiqardi».

Anushervoni odil (1513-1579) zamonida pahlaviy tilida yaratilgan «Vomiq va Uzro» qissasining Abdullo binni Tohir (820-844) zamonigacha mukammal etib kelganligi muhim adabiy hodisa bo'lib, u doston salohiyatining naqadar uzoq tarixga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tazkiraning XV asr adabiyotiga barishlangan fasllari ham foyatda qiziqarlidir. Zeroki, Davlatshoh 50 dan ziyod yaqin o'tmishdoshlari va zamondosh ijodkorlari haqida davr adabiyotshunoslari orasida birinchi bo'lib mufassal dalillar keltiradi: ijodkorlar xususida shaxsan devonini mutolaa etish, ba'zi majmualardagi she'rlarini o'qish, ba'zan poeziya fidoyilari o'zidan eshitgan ma'lumotlarni saralash asnosidagi taassurotlarini bayon etadi; ixcham naqlarni keltirib o'tadi, faroyib voqealarni hikoya qiladi.

Ma'lumki, ko'hna Sharq o'tmishidagi juda ko'p hokimlar, amiru shohlar, bekozodayu shahzodalar ilm-fan, san'at, madaniyat, badiiy ijodning ravnaqiga ko'maklashgan, ko'pincha homiylik qilgan, Ayni paytda ularning aksariyati she'riyat seyrini ilfab, davr poeziyasi taraqqiyotiga munosib ulush qo'shgan. «Tazkirat-ush-shuaro» saroy adabiyoti tarixini, biron bir hokim ijodkor faoliyatini o'rganishdagina muhim manba bo'libgina qolmay, davr tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda ham noyob sarchashmalardan biri hisoblanadi. Zeroki, adib Fazoyiriy Mahmud Bundor – Majduddavla, Amaq - Sanjar, Jaloliddin Abdurazzoq - Jaloliddin Xorazmshoh, Jalol tabib – Shohshujo', Sayid Ne'matulloh - Shohruh, Husayniy - Husayn Boyqaro kabi ijodkor hokimlar xususida so'z yuritish ekan, ularning siyosiy, iqtisodiy sohadagi faoliyatlarini, jangu jadallar, zafaru marubiyatlarini tadrija bayon etishga, ijodkorning ayni paytda davlat arbobi sifatidagi siymosini ktiobxon ko'z o'ngida to'la gavdalantirishga harakat qilgan. Ibni Yamin xayoti va ijodi haqida fikr yuritish jarayonida muallif o'n bir sahifada sarbadorlar davlatining paydo bo'lishi, uning ma'naviy-ma'rifiy siyosati, mafkurasi va nihoyat falokati haqida aniq asosli fikr yuritgan. Davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatgan har bir sarbador - hukmron zikriga tazkirada batafsil to'xtab o'tgan. Chunki bu masala tarixchilar nazaridan chetda qolib kellar ekan. Demak, bu asar XV asrning boshlarigacha bo'lgan Sharq xalqlari tarixining ko'p jihatlarini, madaniy hayot, ilm-fan tarixini o'rganishda ham birinchi manbalardan biri hisoblanar ekan.

Aftidan, tazkirani yozishda Davlatshoh foydalangan manbalardagi dalillarda ishtiboqli o'rinlar ham bo'lgan ko'rinadi. Zeroki, kitobda «Shohnoma»ning xotimasini qartayib qolgan Firdavsiy Asadi Tusiyan yozib tugatishni iltimos qilgan, «Nosir Xisrav asli isfaxonlik edi» degan fikrlar uchraydikim, ular tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Demak, «Tazkirat-ush-shuaro»dagi ayrim fikrlarni boshqa sarchashmalar bilan qiyosan qabul qilish va o'rganish lozim ekan. Ana shunda biz kitobda zikr etilgan ba'zi dalillarga tarixan, ilmiy jihatdan to'g'ri yondashgan bo'lamiz.

Davlatshoh Samarqandiy Husayniy, Navoiy kabi o'zbek shoirlari ijodiga

keng to'xtash bilan birga Bundori Roziy, Mas'ud Sa'di Salmon, Amir Shayxim Suhayliy singari ikki va uch tilda barobar asarlar yaratgan ijodkorlar haqida ham qiziqarli dalillar keltirgan. Bu xislat tazkiraning Sharq xalqlari ma'naviyatidagi zullisonaynlik an'anasi, mulamma' janri tarixini o'rganishdagi ahamiyati ham beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, shoir va adabiyotshunos Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat-ush-shuaro» asari fors-tojik hamda o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishdagina emas, balki butun Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, ilmi, adabiy-estetik qarashlari tarixini o'rganishda ham tengsiz kitobdir. Buni muallifning juda ko'p adiblar haqida gapirganda «She'r ilmida mohir», «aruz haqida risola bitmish», «She'riy san'atlar haqida kitobi bor», «Ilmi she'rda saromadi ro'zfor edi», «Muammo fanida risolalar tasnif etgan» singari fikrlari ham tasdiqlaydi. Davlatshoh ijodini o'rganish va tarfiib etishda akademiklar A.Mirzoev, V.Abdullaev, B.Valixo'jaev, B.Ahmedovlarning xizmatlari katta. Ustoz Bo'rivoy Ahmedov tazkiraning ixchamroq o'zbekcha tarjimasini ham yaratgan va adib haqida batafsil so'z boshi bilan 1967 yili nashr ettirgan.

MUHAMMAD AVFIY

Muhammad Avfiy, Nuriddin Muhammad ibn Tohir ibn Usmon Buxoriy (1172G'77, Buxoro — 1233, Hindiston) — adabiyotshunos, tarjimon. Sharq adabiyotida tazkirachilik asoschilaridan. Buxorodagi madrasada o'qigan. 1201 y. Buxoroda ilek (hokim) saroyida kotiblik qilgan. Xorazm, Xuroson shaharlari — Nishopur, Tue, Hirot, Marvga sayohat qilgan, Najmiddin Kubro, Shayx Majdiddin Bag-dodiy kabi olimlar b-n muloqotda bo'lgan. 1219 y.da Buxoroga qaytgan. Mo'ful istilosi davrida Hindistonga ketib, umrining oxirigacha o'sha erda yashagan. «Lubob ul-albob» («Ma'rifzlarning ma'fzi») tazkirasini yaratgan (1222—23). 12 bobdan iborat mazkur tazkira mo'ful istilosidan avvalgi adabiyot va madaniyat arboblari haqida yagona manba sanaladi. 1223 y.da Krzi Muhsin Tannuhiy (Yu-a.)ning «Al-faraj» («Shodlik») asarini arabchadan forschaga tarjima qilgan. Avfiy Buxoriy.ning ikkinchi yirik asari «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» («Xikoyatlar to'plami va rivoyatlar jilosi», 1228)da turli fanlarga oid

ilmiy lavhalar, bahslar va xulosalar hikoya va rivoyat tarzida sodda bayon qilingan. Asar Sharqda keng tarqalgan, ayrim hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

As: Nodir hikoyalar, T., 1977; Hikoyalar va rivoyatlar, T., 1983.

TASAVVUF ADABIYOTINING O'RGANILISH TARIXI

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrat Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon raziyallohu anhu zamonida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfar bilan qarindosh-urular, yaqin do'st-birolarlarni siylash rasm bo'ladi. Umaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. Ya'ni diniy mash'ulotlar, Xudo yo'lidagi toat-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi qanoat va zuhdni («zuhd» so'zidan «zohid» so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvatdorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik royasini tarf etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar.

Kufa, Bardod, Basra shaharlarida tarkidunyo qilgan zohidlar ko'p edi, aytish kerakki, ularning obro'-e'tibori ham xalq orasida katta bo'lgan. Chunonchi, Uvays Qaraniy, Hasan Basriy kabi yirik so'fiylar aslida zohid kishilar edilar, shuning uchun bu zotlarning nomi shayxlar va so'fiylar haqidagi tazkiralarda zohid sifatida tilga olinadi, ba'zi mualliflar esa ularni so'fiylar qatoriga qo'shmaganlar

ham.

Buning boisi shuki, zohidlar uzlat va taqvoni pesha etgan bo'lishlariga qaramay, ishq va irfon (ilohiy ma'rifat)dan bexabar kishilar edilar. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajzu irodat bilan ma'naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomatlar ko'rsatish kabi xislatlarga ega emasdilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat ma'firatini qozonish, Qur'onda va'da qilingan jannatning huzur-halovatiga etishish edi. So'fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tama'ning bir ko'rinishidir. Holbuki, so'fiy uchun na dunyodan va na oxiratdan tama' bo'lmasligi kerak. Yagona istak bu — Haq taoloning diydoridir, xolos.

Mashhur so'fiy ayol Robia Adaviyya (714—801) Tangriga munajatlarida nola qilib aytar ekan: «Ey Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannating tamaida toat qiladigan bo'lsam, jannatingdan benasib et, agar do'zaxingdan qo'rqib ibodat qiladigan bo'lsam, meni do'zax o'tida kuydir — ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor o'tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!»

Alloh taologa quruq, ko'r-ko'rona mutelikniig hojati yo'q. Uning ʔazabidan qo'rqibgina amri ma'rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. Shuning uchun so'fiylar Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko'ngilni nafsu hirs ʔuboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga etishish va bundan lazzatlanish ʔoyasini keng tarʔib qildilar. Inson ruhi ilohiydir va, demak, asosiy maqsad — ilohiy olamga borib qo'shilmoqdir, dedilar.

Shu tariqa, dunyodan ko'ngil uzgan, ammo zohidlarga o'xshamaydigan, «bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan» (Hofiz Sheroziy), zehnu zakovat, aqlu farosatda tengsiz, ammo o'zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toatu ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo'lgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bunday odamlarning fe'l-atvori, yurish-turishi, xoriqulodda (odatdan tashqari) so'zlari va ishlari atrofdagilarni hayratga solar, ba'zilarining ʔaybdan bashorat beruvchi karomatlari, sirli mo''jizalari aqlarni lol

qoldirardi. Ularni ahlulloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga olardilar. Ammo bu toifaga nisbatan ko'proq «so'fiy» nomi qo'llanilgan, chunki ushbu so'zning ma'nosi ancha keng bo'lib, boshqa tushuncha va atamalarni o'z ichiga sirdirardi.

Xo'sh, so'fiy so'zi qaerdan paydo bo'lgan? Bu haqda bir necha xil qarashlar bor. Ba'zilar bu so'z «saf» so'zidan kelib chiqqan deyдилar, chunki so'fiy Iloh yo'liga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Ba'zi olimlar uni «suffa» so'zidan hosil bo'lgan deb aytadilar: ashobi suffa Rasululloh sallallohu alayhi vasallam tirikliklaridayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishilar bo'lib, so'fiylar shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh olimlar so'fiy so'zi «safo» so'zidan kelib chiqqan, chunki bu toifaning qalbi sidqu safo oftobiday porlab turadi, deganlar. Yana ba'zilar so'fiy «sufuh» so'zidan yasalgan, sufuh — biror bir narsaning xulosasidir, bu jamoa xalqning xulosasi bo'lganligi sababli ularni so'fiy deganlar, deb yozadilar. So'fiy so'zi «sof» so'zidan kelib chiqqan, deguvchilar ham bor. Abu Rayhon Beruniy bo'lsa «Osor ul-boqiya» asarida ushbu so'zni yunoncha «suf», ya'ni faylasuf so'zining oxirgi qismidan yasalgan deb ko'rsatadi. Ammo ko'pchilik so'fiy so'zi arabcha «suf» so'zidan hosil bo'lgan, degan fikrni bildiradilar. «Suf» so'zining lufaviy ma'nosi jun va jundan to'qilgan matodir. So'fiylar ko'p hollarda jun chakmon yoki qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni jun kiyimlilar (forschasi pashminapo'sh), ya'ni so'fiy deb yuritganlar. Bizningcha, shu keyingi etimologik ma'no haqiqatga yaqinroqdir, zero, so'fiy so'zining «suf» so'zidan yasalishi arab tili qonun-qoidalariga mos keladi.

Agar «suf» so'zidan so'fiy yasalgan bo'lsa, o'z navbatida, «sufiy»dan «tasavvuf», «mustasuf», «muttasuf», «mutasavvif» so'zlari hosil bo'lgan. Mustasuf o'zini so'fiylarga o'xshatib, taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi amal-mansab, molu mulkka intilishdan iborat bo'lgan kishilarga nisbatan ishlatilgan so'z bo'lsa, mutassuf tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan, biroq so'fiy darajasiga ko'tarila olmagan kishidir. Qalban so'fiyona royalarga moyil, tasavvufni e'tiqod — maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini

o'tamagan, rasman so'fiy bo'lmagan odamlar esa mutasavvif hisoblanganlar. Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomai sultoniyy" nomli asarida (A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. Tarjima bizniki.-N.K.) so'fiylarning o'zini ham uch guruhga ajratgan: muoshirlar, mutarassimlar, muhaqqiqlar. Muoshirlar — tariqat ahlining muxlislari. Ular darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, darveshlar suhbatida ishtirok etadilar, ularning xizmatlarini bajaradilar va savobga o'zlarini sherik deb biladilar. "Mutarassim" so'zining ma'nosi rasmu rusumga ergashuvchi demak, ammo mutarassimlar darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalar-da, botinan hol talabgoridirlar va shu toifaga ixloslari tufayli ilohiy fayzdan bahramanddirlar.

Muhaqqiqlar — Haqqa etganlar, ularni oliy martabali so'fiylar deb ta'riflash mumkin. Haqiqiy avliyolar, shayxu murshidlar shular ichidan etishib chiqqan. Bu o'rinda muhaqqiq so'fiylarning najib sifatlari xususida to'xtalib o'tish joiz, deb hisoblaymiz.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, chin so'fiy o'zlikdan hamda foniy dunyodan voz kechgan va Haq baqosida o'zligini qayta topgan zot bo'lib, suratda bandayu, ma'nida ozod kishidir. Surat — tashqi ko'rinishda banda bo'lish — jism-tanani Iloh toatiga barishlash bo'lsa, ma'nida ozodlik – botinni barcha aloqalardan tozalab, ruhni hur va pok saqlash demak. So'fiyga hech bir narsa va hech bir kishi qaram bo'lmasligi; uning o'zi ham hech bir narsaning, hech bir odamning qarami bo'lmasligi kerak. Xoja Bahouddin Naqshband aytganlariday:

*Hechi mo neyu hech kam ne,
Az payi hech-hech-hech zam ne,
Janda bar pushtu pusht-go'riston,
Ro'ze, ki mirem hech motam ne.*

Ma'nosi: Hech narsamiz bo'lmaganligi uchun hech kamimiz yo'q, o'sha «hech», ya'ni narsa ketidan quvib, ram ham chekmaymiz. Egnimizda — janda, orqamizda — go'riston, biz vafot etgan kun hech bir motamning ham keragi yo'q.

So'fiynng ozodligi deganda, tasavvuf ahli solikning bashariy sifatlardan mutlaq qutulishi va ilohiy faqr sifati bo'lmish pok ruh ko'rinishida istifno olami — Tangri taolo olamining zarurlari bepoyonligini kullan idrok etishini anglaganlar. So'fiy yana «sirri sof, aqli etuk, muhabbat ahliga dil bo'rlagan» (*Koshifiy*) bo'lishi, nafasidan bedardlar qalbi bedor bo'lmo'fi kerak. So'fiylar ruhoniyyat bilan suhbat quradigan, kayhonu falak asroridan mujda keltiradigan, faqrni ixtiyoriy ravishda bo'yinga olib, tabiiy axloqni tark eta borib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ezgulik yo'lida jonini fido qiluvchidirlar, ular borliq va yo'qlik, zamon va makondan xorij, azalu abadni birlashtirgan mukarram zotdirlar. Bu o'rinda hazrat Abdurahmon Jomiyning «Subhat ul-abror» dostonida so'fiyga bergan ta'rifini keltirmoqchimiz, o'ylaymizki, bu quyma hikmatlar so'fiylar xislatini yorqinroq ochishga yordam berajak:

*Zavqi so'figari ar hast turo,
Boyad az xesh nazar bast turo.
So'fy on ast, ki az xud rastast,
Az neku jastau az bad rastast.
Zodai kavnu zi kavn ozoda,
Bandi hastivu zi hasty soda.
Bo izofat zi izofat berun,
V-az masofat zi masofat berun.
Dar makon nevu makon az vay pur,
Dar zamon nevu zamon az vay pur.
Azalashro ba abad jange ne,
Abadashro zi azal nange ne.
Ne zi advor dar u ta'sire,
Ne dar atvor az u ta'yire.*

Ma'nosi: Agar senda so'fiylik zavqi bo'lsa, sen o'zingni unutishing kerak; o'zingga boqma, o'zgaga boq. So'fiy o'zidan qutulgan, yaxshilikdan sakrab o'tib,

yomonlikdan ozod bo'lgan odamdir. U dunyoning farzandi, ammo dunyodan ozoddir, borliqning tuzorida-yu, lekin borliqdan xalosdir. Ortiqchaliklar (moddiylik) bilan birga, biroq ortiqchaliklardan tashqarida; masofada turib, masofalardan tashqaridir. U makonda emas, (makondan tashqarida), ammo makon, ya'ni dunyo undan to'la, u zamondan tashqarida, lekin zamon u bilan birga. Uning azali va abadiyati orasida ziddiyat yo'q, abadiyati azalidan or qilmaydi. Davrlarning aylanishi, o'tishi unga ta'sir etmaydi, uning siyrati zamonlar aylanishidan o'zgarmaydi.

Ana shunday, davrlarning almashinishi, shohlarning o'zgarishi, siyosat rayosat darvesh so'fiyning e'tiqodiga, xulqiga ta'sir qilmasligi kerak, so'fiy mayda manfaatlar, odamlarning kundalik tashvishlarigina emas, umuman foniyl dunyoning famu muammolaridan ustun turadigan, tafakkurining sathi falaklar qadar qamrovli, qalbida ma'nolar buloqi qaynab turgan komil inson hisoblangan.

Bunday karomatli insonlarni xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar sifatida alohida e'zozlagan. Bu zotlar atrofdagilar ongi va shuuriga qattiq ta'sir o'tkazganlar va ma'naviyat sultonlari bo'lib maydonga chiqqanlar. Ularning so'zi va harakati, xislati va axloqi hammaga ibrat qilib ko'rsatilgan. Jahonning butunligi, obodonlik va osoyishtalik Parvardigor fayzini etkazuvchi shu tabarruk zotlarning duosi, xayrli ishlariga vobasta deb qaralgan. Shu asnoda avliyo — anbiyoning merosxo'ri — davomchisi degan aqida shakllangan. Ya'ni, garchi Payfambari oxirzamon Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan keyin payfambar kelmasa-da, ammo qutbi kirom valiyalar har zamonda paydo bo'lib, xalqni islom haqiqatlariga hidoyat etadilar, to'fri yo'lga boshlaydilar. Chunonchi, uluf shoir Xusrav Dehlaviy o'z piri Nizomiddin Avliyoni shunday kishilardan deb ta'rif etadi va «Matla' ul-anvor» dostonida bunday yozadi:

Nuri jahon az qadami avliyost,

Joni nazar dar jasaki to'tiyost.

(Ko'zning ravshanligi to'tiyo vujudida bo'lganiday, jahonning nuri avliyo

qadamidandir).

Demak, avliyo — jahonning nuri, insonlar ko'zining gavhari. Avliyo Mustafoning izidan borgan va uning nafasidan bahramand odam:

*Rohrave, k-o' ba tariqi safo,
Rafta qadam bar qadami Mustafo.
Sirati maymun-sh ba dinparvariy —
Nusxai debochai pay¹/₄ambariy.*

(Nizomiddin Avliyo safo yo'lida yuruvchi shunday bir zotki, Mustafo orqasidan qadam-baqadam boradi. Uning bunday parvarish topgan saodatli siyrati pay'ambar debochasining nusxasidir).

Alisher Navoiy ham Bahouddin Naqshband va Abdurahmon Jomiyni, garchi Xusrav Dehlaviy, kabi pay'ambar davomchisi, deb atamasa-da, lekin ularni «murshidi ofoq», «koshifi asrori iloh», barcha ishlardan xabardor karomatli va pok niyatli zotlar sifatida ta'rif-tavsif etadi. Xoja Ahror Valiy ham shunday ta'riflagan:

*Mulki jahon mazrai dehqoni ul,
Balki jahon mulki nigahboni ul.
Yo'q mamolikka nigahbon bo'lub,
Borcha salotin uza sulton bo'lub...
Haq so'zini elga qilurda ado,
Teng ko'runub ollida shohu gado.*

(«Hayrat ul-abror»dan)

Bu faqat shoirlarning hayajonli ta'rif-tavsifi emas, albatta. Buni o'rta asrlar kishisining tafakkur tarzi va dunyoqarashi ifodasi, deb bilmoq kerak. So'fiy va darveshlar haqiqatan ham katta nufuz va obro'ga ega edilar. Muqtadir shayxlargina emas, qalandarlar, eshonlar, majzub, «devonalar», oddiy darveshlarni ham odamlar

hurmat qilganlar. Shuning natijasi o'laroq, darveshlik harakati keng quloqchay bo'lgan, darveshlik udumlari shakllanib, darveshlar alohida bir toifa — tabaqa sifatida jamiyatda muhim o'rin egallagan.

Biroq bu birdaniga yuzaga kelgan harakat emas, aytib o'tganimizday, tasavvuf va darveshlik harakati uzoq tadrijiy tarixga ega. Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchisi — zohidlik davri, ikkinchisi — oriflik va oshiqlik davri. So'fiylarning o'zini ham orif so'fiylar, zohid so'fiylar, rind so'fiylar, faqir so'fiylar, faylasuf so'fiylarga ajratish mumkin.

Zohidlik davri so'fiylari (chunonchi, Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abu Hoshim Ko'fiy va boshqalar) taqvo va parhezkorlikni bosh maqsad deb bilgan bo'lsalar, keyingi davr so'fiylari tafakkuriy-shuuriy rivojlanish — ya'ni dunyoni va Ilohni bilish, tanishni asosiy maqsad - deb hisoblaganlar. Birinchi davrni tasavvufning ibtidoiy davri («avvalgi davr») sifatida tilga oladilar. Oriflik davri deb ataganimiz ikkinchi davr ham (bu IX asr o'rtalaridan boshlanadi) bir necha bosqichlarga ega. Chunonchi, IX—X asrlar — xonaqohlarning paydo bo'lishi, tariqat rusumlarining shakllanishi davri. XI—XII asrlar — tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topishi davri. Bunda Misr, Bafod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol o'ynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan.

XIII asr — XIV asr boshlari tasavvuf tarixida alohida bir mahsuldor davrdir. Bu davrga kelib, tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy harakatchilik nuqtai nazaridan o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan edi. Tasavvuf adabiyotining gullashi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Muhyiddin ibn al-Arabiy, Yahyo Suhravardiy, Najmiddin Kubro singari mutafakkir shayxlar, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy kabi uluf so'fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar, uni falsafa va hikmat bilan boyitdilar. Agar IX—XI asrlarda tavhid asoslarini chuqurlashtirishga katta e'tibor berilib, tasavvufning fano va baqo kabi tushunchalari, Haqqa vosil bo'lish mayli shiddat bilan tarfif qilingan bo'lsa, XIII asr o'rtalaridan boshlab tafakkuriy-aqliy yo'nalish

etakchilik qila boshladi. Bu falsafiy oqim tasavvuf tarixida «vahdat ul-vujud» nomi bilan shuhrat topdi. So'fiylar endi koinot tuzilishi, odamlarning xususiyatlari, olam va odam munosabatlari, komil inson angamlari bilan bosh qotiradigan bo'ldilar. Natijada, Ibn al-Arabiy va Jaloliddin Rumiy kabi zotlarning asarlarida butun bir falsafiy tizim o'z ifodasini topdi, ular ilohiy kashfu karomat, ruhiy-psixologik holatlar, botiniy latifliklar bilan birga real insoniy hayot haqida ham juda ko'p ajoyib fikrlarni bayon etdilar. Shunday qilib, tasavvuf Sharq fikriy taraqqiyotidagi ko'p asrlik tajribalarni qamrab olib, uni rivojlantirdi, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlarini birlashtirdi, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bo'lashga harakat qildi. Natijada tasavvuf Sharq kishisining tafakkur tarzi va axloq normasini belgilaydigan hodisaga aylanib qoldi.

Tasavvuf tarixiga nazar tashlar ekanmiz, islom dinidagi mazhablar, qarashlar xilma xilligi so'fiylar hayoti va dunyoqarashiga ham inchunun ta'sir etib turganini ko'ramiz. Xususan, sunniy va shia mazhablari orasidagi kurash sezilarli iz qoldirgan. Eron olimlari, jumladan, «Tasavvuf istilohlari sharhi» (Tehron, 1347 hijriy yili) nomli qomus muallifi Sayyid Sodiq Guharin tasavvufning paydo bo'lishi va qaror topishida shia mazhabiy qarashlarining ta'siri borligini ta'kidlaydi. Boshqa bir qator olimlar yunon falsafasi, qadimgi zardushtiylar, hind falsafiy-asotiriy qarashlarining rolini ko'rsatadilar. Tasavvuf amaliyoti va falsafasida bu buloqlarning samarali ta'siri bo'lishi mumkin. Lekin shuni ta'kidlamoqchimizki, islomiy tasavvuf o'zi o'zlashtirgan jamiki narsalarni islom ruhida qayta ishlab, shariatga muvofiqlashtirgan. Yana shuni ham aytmoqchimizki, shia va sunniy mazhablari orasidagi kurash tasavvuf silsilalarining yo'nalishlarini belgilagan. Chunonchi, tayfuriya, suhravardiya, hululiya, firdavsiya kabi silsilalar ko'proq shiachilikka moyil bo'lsa, yassaviya, naqshbandiya suluklari sunniy mazhabida mustahkam turgan tariqatlar edi. Hazrat Bahouddin Naqshbandning asosiy jiddu jahdi ham tasavvuf va tariqatni sunniy mazhabiga moslashtirish, uni shiachilikka xos jahru samo'lardan tozalashdan iborat bo'lgan. Natijada, naqshbandiya sunniy mazhabli aholi orasida chuqur yoyilgan.

Ammo Najmiddin Kubro asoslagan kubraviya silsilasida shia va sunniy

mazhabidagi kishilar birga ta'lim olardilar. Chunki uluf shayxning o'zlari mazhab va maslaklarga e'tibor qilmagan. Najmiddin Kubro vafotidan keyin esa shogirdlarning bir qismi sunniy tariqatiga (Sayfiddin Boxarziy kabi), bir qismi esa shia asosidagi tariqatlarga (Sa'diddin Hamaviy kabi) qo'shilib ketganlar.

Shu kabi Jaloliddin Rumiy asos solgan mavlaviya mazhabi ham sunniy yo'nalishdagi tariqat bo'lsa-da, lekin diniy va mazhabiy ayirmalar ularda u qadar ahamiyatli bo'lmagan. Bugina emas, Rumiy umuman dinlarning o'zini ham bir-biridan ustun qo'ymay, ularni Tangri sari olib boradigan turli yo'llar, deb qaragan. Bu haqda hali batafsilroq to'xtab o'tamiz.

Tasavvuf tarixi haqida gapirar ekanmiz, hazrat Bahouddin Naqshbanddan keyingi davrni ham baholashimiz lozim bo'ladi. XV—XVI asrlar Movarounahr va Xurosonda naqshbandiya to'la tantana qilib, gullagan davr bo'ldi. Ayniqsa, Xoja Ahror Valiyning amaliy va Mahdumi A'zam - Ahmadi Xojagonning ilmiy faoliyatlari tufayli naqshbandiya mustahkamlandi, nufuzi oshdi, Hindiston, Arabiston erlariga etib bordi, Turkiyaga tarqaldi.

Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Eron va Hindistonda ayrim yangi tariqatlar shakllangan, lekin ular shaxobchalar bo'lib, tasavvuf uchun yangi nazariy va amaliy yo'nalish bermadi. Umuman, XV asrdan keyin tasavvufning nazariy-falsafiy jihati so'na boshladi.

Mahdumi A'zam risolalari naqshbandiya aqidalarini sharhlash va chuqurlashtirishdan iboratdir. Hindistonda bir qadar tafakkuriy siljish bo'lgan. Jumladan, «vahdat ush-shuhud», «vahdat ul-mavjud» oqimlarini yangi falsafiy oqimlar, deb qarash mumkin. Bu qarashlarning Mirzo Bedil ijodiga ta'siri bor. Ya'ni unda barcha ilmlarni inson shaxsi bilan bo'rlash, inson va uning ruhini tadqiq etishga urinish bo'lgan. Biroq, baribir, XV asrdan keyingi davrda ilgari to'plangan tajribani o'zlashtirish, sharhu tafsir qilish va tarfiib etish bilan shufullanildi. Shuning uchun eng toza va jur'atli fikrlarni biz IX—XIII asrlarda yashagan so'fiylarda uchratamiz. Tasavvufning klassik davri ham shu davrdir.

Tasavvuf royalarining sarchashmalari ustida bahs bo'lganiday, birinchi so'fiylar kim edi, degan savolga ham turli xil javoblar mavjud. Husayn Voiz

Koshifiy «Futuvvatnomai sultoni» asarida keltiriladikim, birinchi soʻfiy Odam alayhissalomning farzandlaridan biri Shish degan kishi edi. U oq poʻstin kiyib yurgani uchun shu nomni olgandi. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamoil ul-futuvvat» asarida birinchi soʻfiy sifatida hazrati Payrambarimizning zamondoshi va muhibi Uvays Qaraniy tilga olinadi. Lekin Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot al-quds» asarida birinchi marta el orasida soʻfiy laqabi bilan shuhrat qozongan kishi Abu Hoshim Kufiy ekanligi aytilgan. Uni Abul Hoshim as-Sufiy al-Kufiy ham deydilar. Jomiyning yozishicha, Abu Hoshim Sufyon as-Savriy degan boshqa bir atoqli darvesh bilan zamondosh boʻlgan ekan. Sufyon as-Savriy hijriy 191 (milodiy 807) yilda olamdan oʻtgan. Abu Hoshim esa, Guharinning maʼlumotiga qaraganda, 788 yilda vafot etgan. («Sharhi istilohoti tasavvuf», I jild. Muqaddima, 55-bet). Sufyon as-Savriy deydi: «Men Abu Hoshimni koʻrganimga qadar soʻfiy nima ekanini bilmas edim va ungacha ham zuhd va muomala va varaʼda, tavakkul tariqi va muhabbat tariqida sobit buzurgvorlar bor edilar, lekin avval kishikim uni soʻfiy deb atadilar ul edi va ungacha biror kishini bu nom bilan atamagan edilar. («Nafahot ul-uns min hazarot al-quds», Toshkand, 1913. -27-bet).

Ramla shahrida bino etilgan birinchi xonaqohni ham Abu Hoshim qurdirgan, deydilar. Ammo Jomiy shu munosabat bilan boshqa bir rivoyatni keltiradi, chunonchi: nasroniy amirlardan biri ovga chiqadi, sahroda ikkita odam ikki tomondan roʻbaroʻ kelib, bir-birlari bilan quchoqlashib koʻrishadilar va eguliklarini oʻrtaga qoʻyib ovqatlanadilar. Soʻngra xayrlashib, ikkisi ikki tomonga yoʻlida davom etadi. Buni kuzatib turgan amir ularning harakatlariga qiziqib qolib, birini toʻxtatib soʻraydi: «Sen quchoqlashib koʻrishgan odam kim edi?» Darvesh javob beradi: «Bilmadim». Amir yana soʻradi: «Sening kiming boʻlardi?» Darvesh dedi: «U menga hech kim emas». Amir yana soʻradiki: «U qaerdan?» Darvesh dedi: «Bilmadim». Shundan keyin nasroniy amir dedi: «Bas, sizlarni bir-birlaringizga boʻrlagan bu ulfatchilik qaerdan paydo boʻldi?» Darvesh dedi: «Bu — bizning tariqatimiz».

Nasroniy amir darveshga qarab, sizlarning oʻtirib suhbatlashadigan joy-

manzillaring yo'q ekan, men sizlarga bir joy qurib beray, dedi va Ramla shahrida xonaqoh bino qildi.

Ushbu rivoyatni Abdurahmon Jomiy Abu Hoshim Kufiy munosabati bilan keltiradi. Shunga asoslanib, Abu Hoshimnn birinchi xonaqoh ko'rgan so'fiy sifatida tilga oladilar.

«Abu Hoshim nasroniy rohiblar kabi uzun jun kiyim kiyib yurar va hamisha taqvo bilan kun o'tkazardi» (Guharin, yuqoridagi asar, 53-bet). Sayyid Sodiq Guharin bundan tashqari Jobir ibn Hayyon (822 yilda vafot etgan) va Abdak So'fiy (821 yilda vafot etgan)larni ham dastlabki so'fiylar sifatida tilga oladi. Shuni ham qayd etish kerakki, tasavvuf ahli chahor yori izom va Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning yaqin sahobalaridan Salmon Forsiy bilan Imom Ja'far Sodiqni so'fiylik va valiylik xislati ko'ringan uluf insonlar sifatida ehtirom bilan tilga oladilar. Mazkur zotlar inchunin, javonmardlarning pirlari sifatida ham zikr etiladi. Bejiz emaski, ko'p so'fiylar o'z shajaralarini shu uch zotga yoxud bularning birovi vositasida Muhammad sallallohu alayhi vasallamga olib borib borlaydilar. Chunonchi, «Nazm us-silsila» asari muallifi Vasliy Samarqandiy (XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yashab ijod etgan) urgutlik Eshoni Valixon silsilasini yozar ekan, ul kishining so'fiylik nisbatini quyidagicha belgilab chiqadi: hazrat Muhammad Rasulullohdan Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhuga, ul kishidan Salmon Forsiyga, ul janobdan Imom Qosim raziyallohu anhuga, ul janobdan Imom Ja'far Sodiqqa, ul janobdan Sulton Boyazid Bistomiyga, ul janobdan Abul Hasan Xaraqoniyga, ul janobdan Xoja Ali Formadiyga, ul janobdan Xoja Yusuf Hamadoniyga, ul janobdan Xoja Abduxoliq Fijduvoniya, ul janobdan Xoja Orif Revgariyga, ul janobdan Xoja Mahmud Anjirfa'naviyga, ul janobdan Xoja Ali Rometaniyga, ul janobdan Xoja Muhammad Boboyi Samosiyga, ul janobdan Sayyid Amir Kulolga, ul janobdan Xoja Bahouddin Naqshband hazratlariga, ul janobdan Xoja Muhammad Alouddin Attorga, ul janobdan Xoja Ya'qub Charxiyga, ul janobdan Xoja Ubaydulloh Ahror Valiga, ul janobdan Xoja Muhammad Zohidga, ul janobdan Xoja Darveshga, ul janobdan Xoja Emkanagiya, ul janobdan Xoja Muhammad Boqibillohga, ul janobdan Xoja

Ahmad Foruq – Imom Rabboniyga, ul janobdan Xoja Muhammad Saidga, ul janobdai Xoja Abdulahadga, ul janobdan Xoja Muhammad Obidga, ul janobdan Xoja Muhammad Musoxonga, ul janobdan Xoja Muhammad Siddiqqa, ul janobdan Mavlono Husaynga, ul janobdan Mavlono Mirmuhammad Ibrohimga, ul janobdan hazrati Eshon Xoja Valixonga so'fiylik nisbasi o'tib kelgan. Demak, naqshbandiya silsilasi Salmoni Forsiy va Abu Bakr Siddiq orqali Payғambarimizga olib borib ulangan.

Shu zaylda, tasavvuf tarixi islom tarixi bilan birga rivojlanib, islom madaniyati va ma'rifatiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Agar dastlabki paytlarda Kufa, Basra va Bafdod shaharlarida sanoqli darajada zohid va so'fiylar yashagan bo'lsa, bora-bora musulmon olamida shayxu mashoyixlar, so'fiy-darveshlar, qalandarlarning soni ko'paydi, yuqorida aytganimizday, bu o'ziga xos bir harakatga aylandi. Birgina Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds» nomli kitobida 664 ta shayxu so'fiyning nomi zikr etiladi. Bu XV asrgacha yashab o'tgan atoqli so'fiylar tazkirasi, vaholanki, bir qancha shayxlarning nomi Jomiy kitobida zikr etilmagan, Navoiy ularning bir qismini «Nasoyim ul-muhabbat» asariga kiritgan. Shulardan yuzdan ortiqrofi Turonzaminda etishib chiqqan buzurgvorlar hisoblanadi. XV asrdan keyin ham yana qancha azizu avliyo yashab o'tgandir.

Tasavvuf tarixi haqidagi qisqacha nigorishimiz (obzor) nihoyasiga etar ekan, yana bir nuqtani ta'kidlamochimiz: tasavvufda turli yo'nalishlar, ya'ni zohidona tasavvuf, orifona tasavvuf, oshiqona tasavvuf va rindona tasavvuf oqimlari bo'lgani kabi, so'fiylar ham turli qarashlarga ega bo'lgan har xil tabiatli kishilar edilar. Ular orasida zohidlar, mo''tadil oriflar, isyonkor oshiqlar, majzub devonalar, darbadar qalandarlar, donishmand faylasuflarni ko'ramiz.

«Mavlono Jaloliddin, uning hayoti, falsafasi, asarlari» nomli kitob muallifi, turkiyalik olim Abdulboqiy Go'pyonarli so'fiylarning sakkiz toifasini ajratib ko'rsatadi. Chunonchi:

1. Hayot va dunyo lazzatlariga qattiq bo'langan so'fiylar. Ular gunohu savob, isyon va axborni arzimas, ortiqcha deb biladilar. Shar'iy amrlar jamiyat

intizomi uchundir, bizga u taalluqli emas, biz zavqu hol kishilarimiz, taqvodan xalosmiz, deb o'ylaydilar.

2. Koinotni Parvardigor zoti tajallisining surati deb biladigan so'fiylar. Ular dunyoni naqsh va ranglardan iborat deb bilib, butun olamni esa Parvardigorning zotidan iborat, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, Mutlaq iloh dunyo suratida tajalliy etibdur va mohiyat Uning O'zidir. Oshiq va Ma'shuq ham Udir, demak haqiqiy qibla ham Uning O'zidir.

3. Hamma narsani Mutlaq iloh tajallisi deb bilib, Isoga o'xshab fikr yuritadigan va o'ng yuzingga shapatilasalar, chap yuzingni ham tut, degan aqidani olfa suradiganlar. Ular zulmga e'tiroz bildirmaydilar, ammo mazlumlarga iloji boricha iltifot ko'rsatadilar. Ular uchun dunyo va uning ishlari ma'nisiz, arziyasiz, inson burchini Ilohni tanishdan iborat, deb biladilar.

4. Falsafani, aqlni rad etuvchi so'fiylar. Ular xayol olamiga farq bo'lib, lohut olamidan so'z aytadilar, o'tmishdan va kelajakdan karomat qiladilar. «Er yuzidan xabarleri yo'q, ammo osmonni qadamlab kezib chiqqanday gapiradilar. Oyoqlari ostidagi quduqni bilmaydilar, lekin sayyoralar sayri-yu samoviy ajoyibotlardan so'zlaydilar». (Go'pyonarli, yuqoridagi asar, 292-6.).

5. O'z tasavvurlarida falsafa va hikmatni rad etmoqchi bo'lgan, lekin, aslida so'fiyona aqidalarni falsafiy mushohadalar bilan sinovdan o'tkazgan, omuxta etgan so'fiylar. Bular orada qolganliklari uchun shariat ahli tomonidan ham, tariqat ahli tomonidan ham malomatga uchranganlar.

6. Tasavvufning nozik haqiqatlari, falsafa va hikmat bilan mojarolarini sezgan holda, ammo shariatdan ko'ngil uzolmaydigan so'fiylar. Ular tariqat odobini shariat ahkomiga singdirib yuborishga intiladilar va tavhid ilmida mutaassiblar bilan bir xil e'tiqodda bo'lishga urinadilar.

7. Shunday so'fiylar ham bo'lganki, o'zlarini zamon payqambari, ko'kdan tushgan Mahdi, deb e'lon qilganlar. Zamona oxir bo'lgani, oxirat va dunyo birlashgani haqida xabar beradilar, o'zlarini Tangri zotining erdagi ko'rinishi, Buyuk adolat davrining asoschisi deb tanishtiradilar. Bunday urinishlar tarixda qonli fojialar bilan tugagan.

8. Arosatda, ziddiyatlar ichida qolgan so'fiy namo kishilar ham bo'lgan. Ular na toza musulmon, na butunlay fayri imondirlar. Dardlari ichlarida, yonib qiynalib yuradilar. Biror dinga yoki mazhabga borlanmaydilar. Ammo ularning botiniy olami nihoyatda boy. Ular zohirlarini berkitib, sir saqlab yuradilar. Ularning a'moli va so'zlariga diqqat qilsangiz, ziddiyatni ko'rasiz. Barcha hollarda Tangriga bandalikni bajo keltiradilar va ayni holda suratu siyratlar, rasmu rusumlarni pisand qilmaydilar, axloqu ilmlari bilan barchadan ustunliklarini namoyon etadilar, zakovat va qobiliyatlari hayratlanarlidir.

Ko'rinadiki, tasavvuf bir yo'nalishdagi ta'limot bo'lmagan, uning shox va shoxchalari ko'p. Ammo bizni qiziqtirayotgan narsa uning mohiyati va haqiqati, xalq qalbidan joy olgan insonparvarlik foyalari, uluf adiblarga ilhom bergan Soflik, Haqiqat, Go'zallik, Kamolot ideali, shu ideallarga bo'lgan cheksiz muhabbatdir. Hazrat Navoiy ta'riflaganday, tasavvuf xilofu ixtilofi bo'lmagan, riyo va manmanlik, da'vo-yu tama'ni inkor etadigan bir uluf ta'limotkim, u inson ziynati, tiynatini poklovchi obihayotdir:

*Birovga musallam tariqi tasavvuf,
Ki zotida mavjud emasdur taxalluf.
Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq,
Erur istilohoti zebu takalluf.
Tasavvuf emas zuhdu taqvo-yu toat,
Ki anda riyo yo'l topar be tavaqquf.
Erur mahz taqvoyu, lekin riyosiz,
Ubudiyati sarfu ayni talattuf.
Ne el qavlu fe'liga andin taaddi,
Ne Haq amru nahyiga andin tasarruf.
O'zin o'yla beixtiyor aylabonkim,
Ne qolib taraddud anga, ne taassuf.
Qilib Haq vujudida mahv o'z vujudin,
Navoiy muni bil tariqi tasavvuf.*

Foydalaniladigan darslik va o'quv qo'llanmalari ro'yxati

Asosiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar

1. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik., T.: "Fan", 1977.
2. B.Valixo'jaev. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: "O'zbekiston", 1993.
3. H.Boltaboev. O'zbek mumtoz poetikasi tarixi. T.: "O'zMu" nashriyoti, 2006.
4. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. T.: O'zMU nashriyoti, 2004.
5. B.Valixo'jaev. Mumtoz siymolar., T.: "Fan", 2002.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. B.Qobilova, Amiriy va uning adabiy faoliyati., T.: "Fan", 2007.
2. Tasavvuf manbalari., O'zMU nashriyoti, 2004.
3. H.Homidiy. "Ko'hna sharq darasalari"., T.: "Sharq", 2004.
4. www.G'G'http.o'zbekadabiyoti.com